



BOLALARDA XARHASHA VA YIG'LOQILIK SABABLARINI PSIXOLOGIK O'RGANISH

TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi

2-bosqich, 222-quruh talabasi

Bozorova Ro'zigul +998 99 704 96 15

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda kechadigan har xil jarayonlar haqida so'z boradi. Ulardagi nomoyon bo'luvchi agressivlik holatlarining oldini olish. mavjud muammolarni o'rganish borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Konsepsiya, sensomotor, operatsiya, depressiya, stress, fikr, tadqiqot, agrissevlik, asos, egaist.

Аннотация: В данной статье рассказывается о различных процессах у детей, Они думают о предотвращении ситуаций агрессивности, которых в них невозможно избежать, изучении существующих проблем,

Ключевые слова: Концепция, сенсомоторная, операция, депрессия, стресс, мысль, исследование, агрессивность, основа, эгоист,

Annotation: This article talks about various processes that occur in children. They think about prevention of situations of aggressiveness that cannot be avoided in them, study of existing problems.

Key words: Concept, sensorimotor, operation, depression, stress, though, research, aggressiveness, base, egoist.

Ko'pincha ota-onalar bolalari haqida juda qaysar, o'z aytganidan qolmasliklarini, yoki bo'lmasa ko'p yig'lab xarhasha qilishlarini aytib nolib qolishadi. Ko'pincha bunday holat otalarga nisbatan onalarni qiynab qo'yishlari sir emas, albatta. Negaki, bolalar ko'proq onalari bilan birga bo'lganliklari uchun ularga bog'lanib qoladi.



Xo'sh, bunday holda nima qilish kerak? nima qilsak buning oldi olinadi? Shuni unutmaslik kerakki, bolaning tarbiyasiga juda katta e'tibor berish lozim. Avvalo, boladagi har qanday axloqiy xususiyatlar uch yoshgacha bo'lgan davrida o'zlashtiriladi. Buyuk mutafakkir olimlar ham aynan bolaning uch yoshgacha bo'lgan davri hal qiluvchi rol o'ynaydi deb fikr bildirgan. Bola bu yoshgacha bo'lgan davrda atrofdagi va boshqalar haqida deyarli 70 foiz tasavvurga ega bo'lishi hamda odob-ahloq tushunchasining ham aynan shu davrda shakllanishini alohida aytib o'tishadi. Qolgan 30 - 40 foizi esa, u voyaga yetgan sari namoyon bo'lib borishi haqida tushuntirib o'tadi. Xususan, mashur olimlardan bo'lgan Jan Piaje inson umrini yosh davrlarga bo'lib o'rganar ekan, aynan tug'ilgandan 3 yoshgacha bo'lgan sensamotor davrini alohida tushuntirib o'tadi. Bunda bola dastlabki hayot haqida o'z tasavvurlariga ega bo'la boshlaydi hamda dunyo bo'yicha ma'lumot ola boshlaydi deb uqtiradi. Bu davrning boshqa davrlardan zarur hamda muhimligini aytib o'tadiki, unda otalarni sergaklikka chorlaydi.

Bilamizki, Jan Piaje bu haqida o'z konseptsiyasini yaratgan va yosh davrlarni aql-idrokka qarab ajratgan. Konseptsiyasida aql-idrokning boshlanish shaklini eng muhim deb hisoblaydi va yosh davrlarni to'rtga bo'lib o'rgananadi:

1. Sensomotor davri: 0-3 yoshgacha
2. Operatsiyalargacha tafakkur davri: 3-7 yoshgacha
3. Aniq operatsiyalar davri: 7-13 yoshgacha
4. Rasmiy operatsiyalar davri: 13 yoshdan yuqori bo'lgan davrlar

Birinchi davr hisoblangan sensomotor davri inson uchun yuqorida aytib o'tganimizdek eng muhim davrdir, ikkinchi davr bo'lgan operatsiyalar gacha tafakkur davrida shakllanayotgan har qanday fikr sensomotor davriga asoslanadi. Keyingi davr bo'lgan aniq operatsiyalar davrining poydevori ham huddi o'sha sensomotor davr hisoblanadi. Bu davrsiz aniq operatsiyalarni yuzaga keltira olmaydilar. Nihoyat, 4 - davr bo'lgan rasmiy operatsiyalar davri ham boshlang'ich davrga borib taqaladi,



negaki inson endi bu davrda nafaqat biron bir vazifani aniq bajaradi, balki uning oqibatlarini ham o'ylab ko'radi. Salbiy holatlar yuzaga kelmasliklari uchun oldini olishga harakat qiladi, fikrlaydi.

Bunda o'zining shaxsiy mulohazalari orqali munosabat bildiradi, ammo ushbu munosabatlarni ham birinchi bor olgan malakalarga tayangan holda olib boradi. Shuning uchun ham psixik nuqtai nazardan sensomotor davri inson hayotining o'zagi desak adashmaymiz. Jan Piaje xuddi shu holatlarni ilgari suradi. Ko'rib turganimizdek bolalardagi 3 yoshgacha bo'lgan davr hal qiluvchi hisoblanadi. Shuningdek, bu davrda bolalarda shunday bir vaziyat yaratilishi kerakki, bolalar inijligi yoki yig'loqliligining oldini olish borasidagi holatlar bo'lishi mumkin.

Har qanday bola bu paytda ota-onasiga hukmronligini o'tkazishga harakat qiladi. Buning sababi bolalarning hadeb aytganini qilaverish hisoblanadi. Bunday holatlar esa uni yanada injiq qilib qo'yadi, ammo shuni unutmaslik kerakki, har bir nihol dastlab qay tomonga qarab o'ssa, ulg'ayib katta bo'lganda ham shu holicha qoladi. Shuningdek, bolada bunga yaqin vaziyatlar bo'lishi mumkin. Har qanday ishning boshlanishi muhim bo'lgani kabi, tarbiyaning ham bu davri eng muhim hisoblanadi. Ota-onalar bolalarni aynan o'zlari salbiy holatga keltirib qo'yadilar. Ularning bola nima desa o'sha narsani olib berishlari, o'z tinchlarini o'ylab, hattoki bu narsa bolalar uchun xavfli bo'lsa ham.

Bolalarda bu narsaga o'rganib qolishlari tufayli, bu narsalar ularning quroliga aylanadi. Endi bolalar biror narsani xohlashsa darrov yig'lasshga tushishadi. Bolalarda agressivlik holatlari ham yuz berishi mumkin. Ilmiy jihatdan olib qaralganda bu har xil passiv vaziyatlarni ketirib chiqarishi mumkin. Bola qanchalik kichik bo'lmasin to'g'ri tarbiyaga muhtoj hisoblanadi. Ota-onalar tarbiyani farzandlarining ana shunday kichkinalik paytlaridanoq boshlashi lozim. Endi bolalarning inijliklarini yengish uchun ularga, aynan, aytgan narsalarini emas, balki umuman boshqa narsalar bilan ovutishga urinish kerak, ba'zida esa,



asossiz inijliklarini javobsiz qoldirish lozim. Xadeb ularning aytganlarini qilaverish ham ularning egaist bo'lib tarbiyalanishiga olib keladi. Egaist bo'lib ulg'aygan bola atrofdagilarning fikri bilan hisoblashmasdan faqat o'zining hukmini o'tkazadigan inson bo'lib yetishadi. Shuningdek, asossiz e'tirozlarga hamda tanqidlarga uchraydigan bolalarda kuchli asabiylik holati yuzaga keladi. Bu esa, nafaqat o'zi, atrofdagilar uchun ham xavfli bo'lishi mumkin. Ularda dushmanona qarash ham yuzaga keladi. Tushkunlik holatiga tushib qoladi va undan chiqishi qiyin kechadi. ulardagi komformlik holati ba'zan egaistlik tufayli yuz bersa, ba'zida esa boshqalarning ta'siri orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Bu nimani ko'rsatadi? Bu bolaga qattiqqo'llikning salbiy oqibati hisoblansa ham ajab emas. Ilmiy jihatdan olib qaralsa bu kabi ko'rinishlar bolaning psixikasiga ta'sir qiladi.

Ota-onaning farzandlari bergan savollariga javob bermasliklari yoki bo'lmasa jirkib javob qaytaradigan bo'lsa ham bolada alamzadalik, o'ziga ishonmaslik, stress, hattoki depressiya holati ham yuzaga kelishi mumkin. Buyuk mutafakkirlarimizdan bo'lgan Abu Nasr Farobiy tarbiyaning yumshoqligi va qattiqligi haqida o'z qarashlarini aytib o'tar ekan, tarbiyaning yumshoqligi bolalarning kattalarni pisand qilmaslikka, ularga so'zini o'tkazishga urinishlariga olib keladi, xuddi shuningdek, qattiqligi ham salbiy hisoblanib, bolalarning ularga nisbatan dushmanona munosabatda bo'lishiga olib keladi deb hisoblaydi. Bolalarda turli salbiy hisoblangan: g'azab, nafrat, bezish kabilarni ham yuzaga keltirishini ham aytib o'tadi. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir narsada me'yor eng muhim hisoblanadi. Uning chegaralarini esa ota-onalarning o'zlari belgilab olishlari shart hisoblanadi.

Bolalardagi uch yoshgacha bo'lgan davr muhim ekanligini ko'plab tadqiqotlar ham isbotlab berdi. Jumladan inson bolasi va maymun bolasida olib borilgan tadqiqotlarda ko'rish mumkin. Bu tadqiqotdan maqsad maymunning ham inson harakatlarini bajarilishini kuzatish edi, ammo natija umuman aks holatini ko'rsatadi va bola maymundek harakatlana boshlaydi. Yoki bo'lmasa Masaru Ibukaning "Uchdan keyin kech" asaridagi bolalar tarixini olish mumkin.



Ular 1922-yilda ketib, keyinchalik Hindistonning janubi-gʻarbiy tomonidan topilgan opa - singillar Anala va Kamoladir. Bu qizlarni ota-ona boʻrilar boqib olishadi. Ularda insoniy sifatlardan koʻra hayvoniy sifatlari ortib boradi. Bundan koʻrinib turibdiki, tugʻilgan chaqaloq uchun atrof-muhit, taʼlim-tarbiya, odob-axloqning oʻz taʼsiri beqiyos. Shuni unutmaslik kerakki, bola tarbiyasidan muhim ish boʻlmashlik lozim. Yuqorida aytib oʻtganimiz kabi ota-onalar keng mulohazali boʻlishlari kerak, boladagi betoqatlik qanchalik yuqori boʻlmasin donolik bilan munosabat bildirish lozim.

Bu esa ota-onadan katta masʼuliyatni talab qiladi. Ularda kechayotgan har bir holatga masʼuliyat bilan yondashish lozim. Bolaning psixikasiga taʼsir koʻrsatish jarayoni shuni taqozo etadi. Inson ongli mavjudot ekanligini unutmaslik kerak. U ijtimoiy muhimsiz rivojlana olmaydi. Qay tomonga yoʻnaltirishni belgilash birinchi ota-onaning qay darajada fikrlovchi va yuksak tafakkurga ega ekanligiga bogʻliq. Shaxs boʻlib rivojlanishda ekologik omillar ham muhim, albatta. Oʻz oʻrnida ular ham maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadi. Shu bilan birga genetik jihat ham muhim boʻlgan omil hisoblanadi.

Har bir jarayonning oʻz taʼsiri bolalikning rivojlanayotgan bosqichida, ayniqsa sezilarli ahamiyatga ega. Biroq, xoh u genetik, xoh ekologik taʼsir boʻlsin, tarbiya kabi keng maʼnoda ahamiyat kasb etolmaydi. Qolaversa mashhur adiblarimizdan Abdulla Qodiriy bejizga "Tarbiya yo xayot, yo mamot masalasi" deb aytib oʻtmagan. Shunday ekan, ota-onalar uchun eng muhim vazifa sifatida farzandlarini toʻgʻri tarbiyalash ekanligini unutmaslik kerak. Bunday holatlarni har tomonlama oʻrganib chiqish, muhim muammolardan hisoblanadi. Shiddat bilan oʻzgarib borayotgan bu zamonda bolalarning tarbiyasi alohida eʼtiborni talab qiladi. Bu nafaqat oilaning, balki davlatning ham asosiy muammosi hisoblanadi. Zero, har bir oila jamiyatning bir boʻlagi hisoblanadi. Jamiyat esa, davlatni tashkil etadi. Jamiyatdagi har bir oila mustahkam boʻlsa, davlat ham rivojlanadi, taraqqiy etadi. Bunga koʻplab marralarni zabt etayotgan yoshlarimizni misol qilib keltirsak boʻladi.



Har bir natijaning asosini esa, mehnat va tarbiya hamda tajribalarga tayangan bilimlar belgilab beradi. Jahon miqyosida O‘zbekiston bayrog‘i yuksaklarga ko‘tarilmoqda, madhiyamiz ham baralla yangramoqda. Bunday muvaffaqiyatlar faqat tinch va totuv yurtgagina yarashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev.E.F, Toshimov R.Y . Psixologiya – Toshkent 2005
2. Abdurauf Fitrat. Oila - Toshkent 2000
3. Abdurahmonov F. Abdurahmonova Z. Din psixologiyasi – Toshkent 2011
4. E.E.G‘oziyev. Umumiy psixologiya – Toshkent 2002
5. Bo‘riyev O. O‘zbek oilasi tarixi – Toshkent 1995